Sulzer kompaniyasi polistirolni kimyoviy qayta ishlash texnologiyasini yo‘lga qo‘ydi

// 07.07.2025
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/sulzer-kompaniyasi-polistirolni-kimyoviy-qayta-ishlash-texno



Germaniyaning Sulzer kompaniyasi polistirol materiallarini kimyoviy qayta ishlash uchun mo‘ljallangan EcoStyrene texnologiyasini ishga tushirganini e’lon qildi. Kompaniya ma’lumotiga ko‘ra, ushbu texnologiya turli xil ifloslantiruvchi moddalarni o‘z ichiga olgan polistirol chiqindilarini qayta ishlash imkonini beradi.

"An’anaviy qayta ishlash usullaridan farqli o‘laroq, biz ishlab chiqqan texnologiya olovga chidamli moddalar va oziq-ovqat qoldiqlarini o‘z ichiga olgan polistirol chiqindilarini ham samarali qayta ishlashga imkon beradi.

Bu esa avval qayta ishlab bo‘lmaydigan materiallarni yana ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilish imkonini yaratadi, jumladan, oziq-ovqat bilan bevosita aloqa qiladigan sohalarda ham", — deyiladi kompaniya xabarida.

Yangi texnologiya piroliz jarayonidan oldin antipirenlar va boshqa galogenlangan birikmalarni chiqindidan ajratib olish imkonini beradi.

Shu orqali ifloslangan polistirol yuqori sifatli stirol monomeriga aylantiriladi va u hatto oziq-ovqat bilan aloqa qilishi talab qilinadigan sohalar uchun ham mos bo‘ladi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati